



TOG‘AY MUROD QISSALARIDA MILLIY KOLORITNING BADIY-ESTETIK KONSEPSIYASI

Yo‘lchiyev Madiyor Yo‘lchi o‘g‘li
Turon universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Tog‘ay Murod qissalarida milliy koloritning badiiy-estetik talqini, xalqona ruh va milliy qadriyatlarning adabiy ifodasi tahlil qilinadi. Adib asarlarida o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar, milliy tafakkuri hamda ruhiy olami obrazlar va badiiy tasvir vositalari orqali yoritilgani ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining til mahorati, folklor unsurlaridan foydalanishi va milliy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos uslubi ilmiy-nazariy asosda tadqiq etiladi. Maqolada Tog‘ay Murod qissalarining o‘zbek milliy adabiyotidagi estetik ahamiyati hamda milliy koloritni aks ettirishdagi o‘rni haqida xulosalar berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация национального колорита, литературное выражение народного духа и национальных ценностей в рассказах Тогай Мурада. Выявлено, что произведения писателя освещают образ жизни, обычаи, национальное мышление и духовный мир узбекского народа посредством образов и средств художественного изображения. На научно-теоретической основе также изучены языковые навыки писателя, использование фольклорных элементов и его уникальный стиль в создании национального характера. В статье сделаны выводы об эстетическом значении рассказов Тогай Мурада в узбекской национальной литературе и их роли в отражении национального колорита.

Abstract: This article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of national color, the literary expression of the folk spirit and national values in the stories of Togay Murad. It is revealed that the writer's works illuminate the lifestyle, customs, national thinking and spiritual world of the Uzbek people through images and means of artistic depiction. The writer's language skills, use of folklore elements and his unique style in creating a national character are also studied on a scientific and theoretical basis. The article draws conclusions about the aesthetic significance of Togay Murad's stories in Uzbek national literature and their role in reflecting national color.

Kalit so‘zlar: qissa, milliy kolorit, badiiy-estetik konsepsiya, milliy ruh, folklor, obraz, badiiy tasvir, o‘zbek adabiyoti, xalqona uslub, milliy qadriyat, adabiy tahlil.



Keywords: story, national color, artistic and aesthetic concept, national spirit, folklore, image, artistic image, Uzbek literature, folk style, national value, literary analysis.

Ключевые слова: сюжет, национальный колорит, художественно-эстетическая концепция, национальный дух, фольклор, образ, художественный образ, узбекская литература, народный стиль, национальная ценность, литературный анализ.

Adabiyotshunoslikda milliy kolorit masalasi milliylik, xalqchillik va realizm kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Realistik adabiyotda hayotni haqqoniy tasvirlash talabi milliy muhitni tabiiy va ishonarli ifodalash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan milliy kolorit badiiy asarning obrazlar tizimi, til va uslubi, syujet va kompozitsiyasi, makon va vaqt tasvirida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchilar milliy koloritni tashqi va ichki qatlamlarga ajratadilar. Tashqi kolorit urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechak va kundalik turmush detallari orqali ko'zga tashlansa, ichki kolorit xalqning tafakkuri, ruhiyati va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Haqiqiy badiiylik aynan shu ikki qatlamning uyg'unligida yuzaga keladi. Milliy kolorit muayyan omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Eng muhim omillardan biri til hisoblanadi, chunki badiiy asarda qo'llanilgan so'z boyligi, dialektlar, iboralar va maqollar milliy muhitni jonlantiradi hamda qahramonlarning ijtimoiy va madaniy qiyofasini ochib beradi. Mentalitet ham milliy koloritning asosiy negizini tashkil etadi, chunki u insonlarning fikrlash tarzi, qadriyatlari va hayotga munosabatini ifodalaydi. Badiiy asarda qahramonlarning xatti-harakatlari, qarorlari va hissiy reaksiyalari orqali milliy mentalitet namoyon bo'ladi. Urf-odat va an'analar ham milliy koloritni shakllantiruvchi muhim omillar qatoriga kiradi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Bundan tashqari, makon va tabiiy muhit ham milliy koloritning ajralmas qismi bo'lib, tabiat tasvirlari orqali nafaqat voqelik fonini yaratadi, balki qahramonlarning ruhiy holatini ham ifodalaydi. Milliy kolorit badiiy asarda turli vositalar orqali ifodalanadi. Avvalo, obrazlar tizimi milliylikni aks ettiruvchi asosiy vosita bo'lib, qahramonlarning xarakteri, nutqi va xatti-harakatlari orqali milliy ruh ochiladi. Lingvopoetik vositalar, jumladan metafora, epitet va boshqa tasviriy vositalar milliy koloritni yanada boyitadi. Syujet va konflikt qurilishida ham milliy muhit o'z aksini topadi, chunki unda jamiyatga xos ijtimoiy muammolar va qadriyatlar ifodalanadi. Badiiy detal esa milliy koloritni aniqlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi, chunki kichik bir predmet orqali ham muayyan davr va muhitni tasvirlash mumkin. Globallashuv sharoitida milliy kolorit masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki global madaniyat ta'siri kuchaygan sari milliy o'ziga xoslikni saqlash zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy o'zbek nasrida milliy kolorit bir



tomondan an'anaviy qadriyatlarni saqlash, ikkinchi tomondan esa yangi ijtimoiy sharoitda ularni qayta talqin qilish orqali rivojlanmoqda. Bu jarayonda yozuvchilar milliy koloritni nafaqat tashqi belgilar orqali, balki chuqur falsafiy mazmun bilan boyitishga intilmoqdalar. Milliy kolorit badiiy adabiyotning muhim estetik kategoriyalaridan biri bo'lib, u muayyan xalqning ruhiyati, madaniyati va tarixiy tajribasini o'zida mujassam etadi. U badiiy asarning realizmini ta'minlaydi, milliy ong va tafakkurni aks ettiradi hamda o'quvchiga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli milliy koloritni o'rganish adabiyotshunoslik bilan bir qatorda madaniyatshunoslik va tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Tog'ay Murod ijodi misolida milliy koloritning badiiy imkoniyatlarini chuqurroq anglash mumkin.

Badiiylik va milliy kolorit o'rtasidagi munosabatni qahramonlar nutqi misolida ham ko'rish mumkin, chunki qahramonlarning nutqi orqali ularning milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi va dunyoqarashi ochib beriladi, bu jarayonda xalqona iboralar, maqollar, dialektlar va frazeologik birliklar muhim rol o'ynaydi, aynan shu til unsurlari orqali milliy kolorit shakllanadi va badiiylik darajasi ortadi. Chunki ular nutqqa tabiiylik va samimiylik bag'ishlaydi, shu bilan birga estetik zavq uyg'otadi, bu esa tilning go'zallik yaratish xususiyatining yorqin namunasidir. Tilning ikki tomonlama badiiy xususiyati milliy koloritni shakllantirishda quyidagicha namoyon bo'ladi, bir tomondan yozuvchi real milliy hayotni aks ettiradi, ya'ni urf-odatlar, marosimlar, turmush tarzi va tabiat tasvirini berish orqali milliy muhitni ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa u tilning badiiy imkoniyatlaridan foydalanib, ushbu muhitni estetik jihatdan boyitadi va umumlashtiradi. "Tilning emotsionalligi badiiy matnda qahramon ruhiyati, muallif munosabati va milliy xarakter ifodasini kuchaytiruvchi muhim uslubiy vosita hisoblanadi".¹ Natijada milliy kolorit faqat faktlar yig'indisi emas, balki badiiy tizimga aylangan estetik hodisa sifatida yuzaga keladi. Adabiy jarayonda ijodkorning individual uslubi ham milliy kolorit va badiiylik uyg'unligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi, har bir yozuvchi milliylikni o'ziga xos tarzda ifodalaydi va bu uning til tanlovi, obraz yaratish usullari hamda estetik qarashlarida aks etadi. Masalan, Tog'ay Murod ijodida tilning sodda, xalqona va obrazli qo'llanishi orqali milliy ruh tabiiy va ta'sirchan tarzda ifodalanadi, uning asarlarida til bir vaqtning o'zida ham real hayotni aks ettiradi, ham yangi estetik go'zallikni yaratadi, bu esa badiiylik va milliy koloritning uyg'unlashgan holatini ko'rsatadi. Milliy kolorit va badiiylik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'quvchi idrokida ham o'z aksini topadi, chunki badiiy asarni o'qish jarayonida o'quvchi nafaqat voqealarni anglaydi. Balki estetik zavq oladi, aynan

¹ A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, H. Rustamov. O'zbek tilining stilistikasi – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 112-bet.





milliy kolorit orqali bu zavq yanada kuchayadi, chunki u o'quvchini o'ziga tanish yoki qiziqarli bo'lgan milliy muhit bilan bog'laydi, shu bilan birga badiiy til vositalari orqali bu muhit estetik jihatdan boyitiladi. "Agar tasvirlamoqchi bo'lgan narsalaringizga yetarli darajada bardosh va e'tibor bilan tikilsangiz, uning hali hech kim ko'rmagan va tasvirlamagan tomonlarini, albatta, topasiz... Arzimagan narsaning ham hali ma'lum bo'lmagan biror qirradi bor. Yonib turgan olovni yoki tekis joydagi bir daraxtni tasvirlash uchun ularni boshqa hech qaysi olovga yoki daraxtga o'xshamay ko'ringuncha o'rganish kerak"² degan fikrlar to'laqonli haqiqat. Badiiy adabiyotda tasvir aniqligi va kuzatuv chuqurligi masalasi milliy koloritni yaratishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, chunki yozuvchi tasvirlamoqchi bo'lgan voqelikni yuzaki emas, balki uning ichki mohiyatigacha anglab yetgan taqdirdagina uni badiiy jihatdan mukammal ifodalay oladi. Shu jihatdan har qanday predmet, hodisa yoki inson xarakteri o'zida betakror jihatlarni mujassam etadi va aynan ana shu o'ziga xoslikni topish ijodkorning asosiy vazifasiga aylanadi, natijada badiiy tasvir umumiylikdan xususiylikka, oddiylikdan betakrorlikka o'tadi va milliy koloritning shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, badiiy asarda qahramon ruhiy holatini tasvirlashda ijodkor mahorat bilan foydalanadigan badiiy unsurlar xalqona tasvir yaratishga xizmat qiladi: "Qahramon ruhiyati badiiy asarda personajning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va psixologik holatini ochib beruvchi asosiy estetik unsurlardan biri hisoblanadi"³ deb yozadi adabiyotshunos Izzat Sulton. Xalq hayotini tasvirlashda milliy koloritning ishonarli chiqishi yozuvchining kuzatuvchanligi va tafakkur chuqurligiga bevosita bog'liq bo'ladi, chunki oddiy ko'rinadigan voqea yoki predmet ham aslida ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, uning ichida milliy turmush tarzi, qadriyatlar tizimi va estetik qarashlar mujassam bo'ladi.

"Har bir yozuvchining o'ziga bir yozuvchiga o'xshamasligi, uning adabiyotdagi mustaqil ovozi mazkur adib uslubini belgilashga xizmat qiladi. Ayni chog'da yozuvchining hayotni tadqiq etishdagi o'ziga xos yo'li hayotni qanday ko'radi va uni qanday tushuntiradi; nimani tasdiqlaydi-yu, nimani inkor qiladi-shularning hammasi uslub doirasiga kiradi"⁴ deb e'tirof etadi tadqiqotchi M. Sultonova. Shuningdek, yozuvchi uslubi badiiy asarda xalq hayotini jonli tasvirlash va milliy koloritni to'laqonli aks ettirishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda yozuvchi uslubi masalasi ijodkorning badiiy individualligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi, chunki har bir yozuvchi borliqni o'ziga xos tarzda idrok etadi va uni badiiy shaklda ifodalaydi, shu jihatdan tadqiqotchi M. Sultonova ta'kidlaganidek, ijodkorning boshqa yozuvchilarga

² Badiiy ijod haqida. (Maqolalar to'plami). O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. T.:1960. 276b

³ Sulton I. Adabiyot nazariyasi – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 214-bet.

⁴ Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. "Fan" nashriyoti. T.:1973. 116b





o'xshamasligi, uning adabiyotdagi mustaqil ovozi aynan uslub orqali namoyon bo'ladi, bu esa nafaqat til va ifoda vositalarida, balki hayotni ko'rish, tushunish va baholash jarayonida ham o'z aksini topadi. Natijada uslub ijodkorning badiiy dunyoqarashini ifodalovchi kompleks hodisa sifatida shakllanadi. Yozuvchi uslubi hayotni tadqiq etish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, u voqelikni qanday ko'rish, uni qanday talqin qilishi va qanday estetik xulosalar chiqarishi orqali namoyon bo'ladi, shu ma'noda uslub faqat tashqi ifoda vositalari yig'indisi emas, balki ijodkorning ichki dunyosi, falsafiy qarashlari va estetik ideallarining badiiy ifodasidir. Aynan shu jihat yozuvchi uslubini boshqa ijodkorlardan ajratib turadi va unga o'ziga xoslik bag'ishlaydi, natijada har bir asar muallif shaxsiyatining badiiy aksiga aylanadi. Izzat Sultonning o'ziga xoslik haqidagi: "Milliy kolorit san'atkor tasvirlayotgan xalq hayotining milliy o'ziga xosligi, urf-odatlar, tili, ruhiyati va turmush tarzining badiiy ifodasida namoyon bo'ladi" degan fikrlari ayni o'rinlidir.

Tog'ay Murodning o'ziga xos uslubini tahlil qilganda, unda xalq og'zaki ijodi — dostonlar, maqollar, ertaklar, tez aytilishlar bilan bir qatorda, mumtoz adabiyot an'analari va qadimiy turkiy bitiklar ifoda uslublari o'zaro uyg'unlashib ketganini kuzatish mumkin. Masalan, "Saraton balolardan sariq bo'ldi, balolar saratondan-da sariq bo'ldi" jumlasida mumtoz she'riyatga xos tardi aks san'ati qo'llangan bo'lsa, "Qizillar qulog'i qirqta bo'ladi" ifodasida alliteratsiya — tovushlar uyg'unligi va takrori yaqqol seziladi, bu esa she'riyatga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Aynan shunday usullar tez aytilish janrida ham keng qo'llanadi. Shoir Yo'ldosh Eshbekning "Tog'ay Murodning asarlari proza emas, poeziya" degan fikri ham bejiz emas, chunki yozuvchining nasriy matnlarida she'riy ifoda, ritm va badiiy ohang kuchli sezilib turadi. Bu jihatdan u mumtoz adabiyot an'alarini zamonaviy nasr bilan uyg'unlashtira olgan noyob ijodkorlardan biridir. Xuddi Alisher Navoiy ijodida uchraydigan ayrim hikmatli misralarning xalq maqollariga yaqinligi yoki keyinchalik maqolga aylanib ketgani kabi, Tog'ay Murod asarlaridagi ko'plab iboralarni ham maqollardan ajratish qiyin. Ular shu darajada xalqona va hikmatli. Umuman olganda, bu betakror adibning uslubini shunchaki "xalqona" deb baholash yetarli emas, chunki uning ijodi chuqur qatlamlarga ega bo'lib, unda milliy tafakkur, badiiy tajriba va estetik izlanishlar uyg'unlashgan. Shu sababli uning uslubini yanada kengroq va chuqurroq o'rganish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tog'ay Murod ijodi misolida milliy kolorit masalasi yanada yaqqolroq ko'rinadi. Uning asarlarida tasvirlangan qahramonlar, hatto ular boshqa madaniy kontekstga ko'chirilgan taqdirda ham, o'z milliy mohiyatini yo'qotmaydi. Bu holat shuni anglatadiki, yozuvchi milliylikni tashqi atributlar orqali emas, balki ichki mazmun — xarakter, dunyoqarash va axloqiy pozitsiya orqali yaratadi. Demak, koloritning eng yuqori bosqichi bu —



ichki koloritdir, ya'ni obrazning ruhiy va ma'naviy tabiatida mujassam bo'lgan milliylikdir.

*“Adirlarda qo'y boqib, nay chaldim. Nafasim yetmay qoldi. Shunda eski bir do'mbira topdim. Do'mbirani sayratdim. Bepoyon adirlar, yoyilib o'tlayotgan qo'ylar, cho'qqilar ustida tinmay chug'urlayotgan qushlar, pag'a-pag'a oppoq bulutlarga qarab doston aytdim. Bu dostonlarni to'ylar, olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo'yib, biri aytar edi. Bobolarning ko'plari rahmatlik bo'ldi. Rahmatliklarday doston aytib bo'lmaydi, Bizniki, baholi qudrat...”*⁵ Keltirilgan parcha Tog'ay Murod ijodiga xos milliy kolorit va individual uslubning yorqin namunasi bo'lib, unda xalqona hayot manzarasi, estetik tafakkur va badiiy ifoda o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Ushbu matndan milliy kolorit elementlarini aniqlash uchun uni mazmuniy va shakliy jihatdan tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, H. Rustamov. O'zbek tilining stilistikasi – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 112-bet.
2. Badiiy ijod haqida.(Maqolalar to'plami). O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. T.:1960. 276b
- 3.Sulton I. Adabiyot nazariyasi – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 214-bet.
4. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. “Fan” nashriyoti. T.:1973. 116b
5. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Ziyonashr. T.: 2019.131b

⁵ Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Ziyonashr. T.: 2019.131b